

## Alloh qanday ham go'zal yaratibdi!



11:00 / 16.01.2019 7033

Bir zamonlar yo'q edik. Moviy osmon, yulduzlar, quyosh, oy, rang-barang gullar, sayroqi qushlar, umuman, bu dunyoning o'zi yo'q edi. Allohdan boshqa hech bir narsa yo'q edi. Yolg'iz Alloh bor edi, xolos.

U xohladi, biz bor bo'ldik. U xohladi, osmonlar, yer yuzi, qushlar, hasharotlar, dengizlar, irmoqlar bor bo'ldi. Butun olam va uning ichidagilar bor bo'ldi. Alloh «bo'l» dedi va har narsa bo'laverdi. Insonni, hayvonlarni va boshqa jonli va jonsiz narsalarni - butun borliqni go'zal qilib yaratdi.

Ko'rishimiz uchun ko'z, tinglashimiz uchun esa quloq berdi. To'g'rini xatodan ajratishga aql berdi. Bizga jon berdi, qushlarga, daraxtlarga, chechaklarga hayot berdi.

Robbimiz yer yuzini go'zalliklarga burkadi.

Dunyodagi har bir narsa qanday bo'lishi kerak bo'lsa, shunday bo'ldi. Mukammal bir muvozanat va reja qurildi olamda. Dunyo aylanishini, quyosh ziyo sochishni, qushlar o'z navolarini boshladi.

Robbimiz otamiz Odamni va onamiz Havvoni yaratdi. Muhabbatni paydo qildi. Odam Ato va Havvo onamiz turmush qurdilar. Insoniyat nasli ko'paya boshladi. Kishilar soni ortdi va ular yer yuziga yoyildilar. Bir-biridan farq qiluvchi tillar, turli irq'larga mansub millatlar jamlandi. Insonlar birlashib qishloqlar, shaharlar, o'lkalar qurdilar.

***islom.uz tahririyati***